

Samarqand tarjimachilik maktabi: qiyosiy-tarixiy tahlil

Alisher Zokirovich Erkayev

zerkayev@mail.ru

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada samarqand tarjimachilik maktabi, samarqand adabiy muhitida yaratilgan adabiy asarlarning qiyosiy-tarixiy tahlili haqida ma'lumotlar berilgan. O'tgan yaqin yillar ichida xorijiy tillardan bevosita tarjimaga o'tish mumkinligiga hammayam ishonavermas edi. Qarangki bugun mana shunday kunlarga yetib keldik. Kitob do'konlarimizda xorijiy tillardan tarjima qilingan ko'plab asarlarni ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: tarjimachilik, samarqand tarjimachilik maktabi, samarqand adabiy muhiti, tarjimachilikga berilayotgan e'tibor.

Samarkand school of translation: a comparative-historical analysis

Alisher Zokirovich Erkayev

zerkayev@mail.ru

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article provides information about the Samarkand School of Translation, a comparative-historical analysis of literary works created in the Samarkand literary environment. In recent years, not everyone has believed that direct translation from foreign languages is possible. Look, today we have reached such days. Many books translated from foreign languages can be found in our bookstores.

Keywords: translation, Samarkand school of translation, Samarkand literary environment, attention to translation.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida barcha tur va janrlar qatori badiiy tarjima amaliyotida ham o'sish-o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, asliyat tilidan tarjima izga tushayotgani quvonarli hol. Bu borada yoshlarning o'z iqtidorini sinovdan o'tkazayotgani, Sharq va G'arb xalqlari adabiyoti namunalarini bevosita ona tilimizga o'girishga dadil kirishayotgani katta umid uyg'otadi.

Ayni paytda o'zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish bobida ham yoshlar yaxshigina tashabbus ko'rsatmoqda. Bu sohadagi ishlarning izchil tus olganini O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Badiiy tarjima va xalqaro

aloqalar bo'limining respublikamizdagi yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida poytaxt va viloyatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda "Yosh tarjimonlar maktabi"ni tashkil etgani, yosh tarjimonlarning ilk tarjima asarlari "Adib" nashriyotida chop etilayotgani, "Jahon adabiyoti" jurnalining muntazam chiqib turgani va amalga oshirilgan boshqa ko'plab tadbirlar misolida ko'rish mumkin. Zero, o'zbek adabiyoti namunalarini chet tillariga, jahon adabiyoti sara asarlarini ona tilimizga munosib tarzda tarjima qilib taqdim etishdek sharaflı vazifa bugungi navqiron avlodning iqtidori, g'ayrat-shijoatiga bog'liqligi sir emas.

O'tgan yaqin yillar ichida xorijiy tillardan bevosita tarjimaga o'tish mumkinligiga hammayam ishonavermas edi. Qarangki bugun mana shunday kunlarga yetib keldik. Kitob do'konlarimizda xorijiy tillardan tarjima qilingan ko'plab asarlarni ko'rish mumkin. Men ularni uch turkumga ajratib qarayman. Birinchisi, aslyatdan birmuncha farq qilsa-da, o'qishli, badiiyligi saqlab qolingani vositachi til orqali qilingan tarjima asarlar. Ikkinchisi, "bevosita tarjima" yorlig'i bilan siylangan, aslida vositachi til orqali qilingan tarjima asarlar. Uchinchisi, rostdan ham aslyatdan o'girilgan tarjima asarlar. Shu o'rinda, men ushbu ro'yxatdagi uchinchi turkum asarlar boshiga "badiiy" so'zini qo'shib aytishga biroz iymanib turibman. Sababi bevosita tarjima industriyasida "badiiy" tarjima deya e'tirof etishga munosib asarlarga hali ko'zim tushgani yo'q. Ammo "bevosita tarjima"lar birin-ketin bosilmoqda. Modomiki, bu ish boshlangan ekan, uni takomillashtirish yo'lida tarjimon-mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari va ular qoshida tashkil etilgan "Yosh tarjimonlar maktablari" va bu sohaning chinakam jonkuyari bo'lgan tarjimashunos olimlar kuchini, sa'y-harakatini birlashtirish lozim. Shunda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishish mumkin bo'ladi.

Albatta, bevosita badiiy tarjima amaliyotini takomillashtirish uchun, avvalo, shu sohaga oid darslik va qo'llanmalarni yangilash lozim. Buning uchun, ehtimol, mazkur sohaga oid qo'llanmalarni nashr etishdan avval o'qib tavsiya bera oladigan tarjimashunos olimlarning metodik kengashini tashkil etish kerak bo'lar. Sababi, mashaqqatli mehnat va mablag' evaziga chop etilgan qo'llanmani nashr etilgandan so'ng tanqid qilgandan ko'ra, nashrgacha taqrizga berib, xato va kamchiliklari ko'rsatilsa, ta'lim tizimi rivoji uchun maqsadga muvofiq ish bo'lardi.

Yurtboshimizning "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" asarida aytilgan "...boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarur. Qaysi mamlakatda bizning adabiyotimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashadi, xorijdan biz nimalarni o'rganishimiz mumkin, o'z navbatida, ularga nimalarni taqdim etishimiz mumkin - bu masalalar xalqaro maydonda o'zligimizni namoyon etishda katta ahamiyatga ega ekanini doimo yodda tutishimiz lozim. Men bu borada G'arb bilan birga Sharq mamlakatlari, jumladan, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya bilan, Misr, Birlashgan Arab Amirliklari,

Quvayt kabi arab davlatlari bilan aloqalarni kuchaytirishni tavsiya etgan bo‘lardim”, degan fikrlari sharqshunos mutaxassislariga mas’uliyatli vazifalarni yukladi.

Ushbu vazifalar doirasida Toshkent davlat sharqshunoslik institutida bir qator ishlar amalga oshirilmoqdaki, ularni uch yo‘nalishga ajratish mumkin: birinchisi, sharq mamlakatlari adabiyotini chuqur o‘rganish va o‘zbek tiliga tarjima qilish; ikkinchisi, o‘zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy sharq tillariga tarjima qilish orqali milliy madaniyatimizni jahonga targ‘ib qilish; uchinchisi, sharqshunos tarjimonlarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini mustahkamlash, tarjimashunoslikning nazariy masalalarini tadqiq qilish. Bu ishlarni boshqarishda institutda 2011 yilda ochilgan va joriy yilda magistratura va bakalavriat yo‘nalishlarini bitirayotgan ilk qaldirg‘ochlar - o‘ttiz nafarga yaqin yapon, xitoy, hind va arab tillaridan tarjima qiluvchi yosh mutaxassislar tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining faoliyat ko‘rsatayotgani katta umid uyg‘otadi.

Tarjimondan nafaqat til bilimdoni, balki adabiyotshunos va elshunos bo‘lish ham talab etiladi. Chunki muayyan xalqning madaniyati, assotsiativ tafakkurini chuqur bilmay, til boyligini yaxshi egallamay turib tarjimon badiiy til vositalarini to‘g‘ri tanlay olmaydi, tilning poetik jihatlarini his etmay, oqibatda tarjima to‘g‘ri va ta’sirchan chiqmaydi. Shu ma’noda yosh tarjimonlarga sohaning yetuk mutaxassislari, tajribali sharqshunos-tarjimonlar yordamida mahorat darslari tashkil etib, tarjimada milliy koloritning berilishi, so‘z tanlash mahorati, davr ruhining til birliklari vositasida to‘g‘ri aks ettirilishi, nihoyat, asar muallifining g‘oya-maqsadini aniq yetkazib berishga o‘rgatish zarur deb o‘ylayman.

Yaqinda institutda «Sharq tarjimashunosligi tarixi, hozirgi kuni va kelajagi» mavzusiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy anjumanda respublikamiz oliy ta’lim muassasalari, jumladan, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent islom universiteti, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi vakillari ishtirok etdilar. Yoshlarning ilmiy anjumanlarda o‘zlarini namoyon etishlariga imkon yaratish, respublika miqyosida tarjima mutaxassislari bilan tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish, o‘zbek va sharq xalqlari adabiyotini o‘zaro yaqinlashtirish jarayonini jadallashtirish, adabiyot namunalarini o‘zbek va sharq tillariga tarjima qilish masalalari anjumanning kun tartibini tashkil etdi. Ilmiy to‘plam tarzida nashr etilgan “Sharq tarjimashunosligi tarixi, hozirgi kuni va kelajagi” kitobida boy an’analarga ega sharq tarjimashunosligining bugungi kundagi muammolari, o‘zbek adabiyoti namunalarining sharq xalqlari tillariga, sharq tillaridan o‘zbek tiliga badiiy tarjimani amalga oshirish, tarjima tamoyillari, uslub masalalari bilan bog‘liq sohaning dolzarb mavzulariga bag‘ishlangan tadqiqotlar jamlangan. Shu o‘rinda tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning qiziqarli mavzular ustida izlanayotganini ham alohida ta’kidlashni istardim. Yapon, koreys, xitoy, hind tillaridan

tarjima jarayonida uchraydigan til va badiiy tafakkur bilan bog‘liq holatlar tarjimasiga aloqador masalalarni tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlar kelgusida bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar ko‘lamining yanada kengayishiga ta‘sir etadi.

Tarjima asarlarni tayyorlash, bu sohaga qadam qo‘ygan yoshlarni tarbiyalashda, albatta, Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikdagi ishlarimiz kutilgan natijalarni beradi, degan umiddaman.

Tarjimonlik fakulteti bakalavr va magistrLARining bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari mavzularida hamon qaysidir asar tarjimasining sintaktik-semantik tahlili, kontseptologiya, frazeologizmlarni uzatish muammosi, muallif uslubi va shunga o‘xshash mavzular yoritilmoqda. Modomiki, kun tartibida o‘zbek tilidan chet tillariga tarjimoni kuchaytirish masalasi turar ekan, ishni aynan malakaviy ishlar mavzularini yangilashdan boshlash lozim ko‘rinadi.

Keyinchalik shu soha rivoji uchun ham nazariy, ham amaliy samara keltiradigan, doktorlik tadqiqotigacha tortishi mumkin bo‘lgan mavzular berilsa yoshlar o‘z ustida ko‘proq ishlagan bo‘larmidi... Badiiy asarda his-tuyg‘u, inson va tabiat, harakat va holat tasviri asosiy o‘rinni egallaydi. Chet tiliga tarjimalarning badiiy chiqmayotganiga aynan shu sohaga doir o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlarning yo‘qligi ham sabab bo‘lmoqda. Ingliz tilini bilish - ingliz badiiy tilini bilish degani emas. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda, asosan, tarjimon mahorati, asliyatni qayta yaratish mahorati tadqiqot sub’ekti darajasida yoritib berilmoqda.

Albatta, bu tarjimaning nazariy muammolarini teranroq ochib berishga ko‘maklashadi. Ammo yangicha tadqiqotlarga qo‘yiladigan talablarda ishning amaliylik darajasi yuqori bo‘lishi lozim. Masalan, yaqinda o‘zbek tilshunoslari N.Mahmudov va D.Xudoyberganova tomonidan tayyorlangan “O‘zbek tilining o‘xshatmalar izohli lug‘ati” bilan tanishdim.

O‘zbekcha-inglizcha xuddi shunga o‘xshash lug‘atlar yaratilsa, tarjimonlar mehnati qanchalik yengillashardi. Buning uchun magistrLAR va yosh tadqiqotchilar harakati to‘g‘ri yo‘naltirilib, yaqin yillarda o‘zbek tilidan ingliz tiliga badiiy tarjima ishini osonlashtiradigan ikki tilli tasviriy vositalar lug‘atlari yaratilsa ajab emas. Bunday nashrlar o‘zbek adiblarining xorijlik kitobxonlariga zavq ulasha oladigan ingliz tilidagi badiiy tarjima asarlariga keng yo‘l ochardi.

So‘nggi yigirma yil ichida Sharq adabiyotining o‘nlab nodir namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Agar o‘tgan asrning 80-yillarigacha bunday asarlarning asosiy qismi rus tili orqali o‘girib kelingan, o‘zbek xalqi Sharq adabiyoti namunalari bilan bilvosita tarjimalar soyasida tanishgan bo‘lsa, 90-yillardan boshlab sharq tillaridan bevosita tarjimaga ko‘proq e’tibor berila boshladi.

Bu davrda o‘zbek adabiyoti namunalarini sharq tillariga tarjima qilish ishi yangi bosqichga ko‘tarildi. Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Pirmiqul Qodirov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, Shukrullo, O‘tkir Hoshimov va boshqa

adiblarning asarlari turk, xitoy, arab, koreys singari sharq tillariga tarjima qilindi. Shunga qaramay, o'zbek tilidan sharq tillariga o'girilgan asarlar salmog'i sharq tillaridan qilinayotgan tarjimalardan ancha kam. Buning sababi, nazarimda, o'zbekcha asarni chet tiliga o'giradigan mahalliy mutaxassislarning ozligidir.

Agar buni birgina o'zbek va turk tillaridan amalga oshirilgan tarjimalar misolida olib qaraydigan bo'lsak, bugungacha turk tiliga o'girilgan o'zbek adiblari asarlari turk tarjimonlari tomonidan amalga oshirilganiga guvoh bo'lamiz. Buni boshqa tillarga qilingan tarjimalar misolida ham aytish mumkin. Galdagi vazifa o'zbek adabiyoti durdonalari orasidan tanlab olingan asar-larni turk tiliga iste'dodli o'zbek tarjimonlari tomonidan amalga oshirilishiga erishish va bu borada hamkorlikni ku-chay-tirish, keng jamoatchilik ishtirokida tarjima asarlar taqdimot-larini o'tkazib, ommaviy-axborot vositalari yordamida ommaga ma'lum qilishdan iborat.

Albatta, badiiy tarjima sohasiga iste'dodli yoshlarning kirib kelayotgani quvonarli hol. Faqat ularga "ustoz ko'rishlari" uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozim. Buning uchun respublikamizdagi oliy o'quv yurtla-ri, jumladan, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutlarida shakllangan yosh tarjimonlar maktablarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish, ularning tarjimalarini, mutaxassislarning tahlili va tanqidiy muhokamasidan o'tgach, nashrga tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman.

Nashr etilayotgan tarjimalardagi kamchilik va nuqsonlarga kelsak, aytish joizki, ayrim tarjimonlar badiiy tarjimaga ijod deb emas, zaruriyat deb qarayotganga o'xshaydi. Masalan, so'nggi yillarda turkcha badiiy asarlarning o'zbek tiliga tarjimasini ishlari jadallashdi, bunda o'zbek tarjimonlarining hissasi katta. Biroq turk tarjimonlari o'girgan o'zbek adabiyoti namunalarining turkcha tarjimasini xususida bunday deyish qiyin. Turk tarjimonlari o'z kitobxonlarini o'zbek yozuvchilarining asarlari bilan tanishtirishni asosiy maqsad qilgan holda, tarjimalarning sifati, milliylikning tarjimada saqlanishi masalasini ikkinchi darajaga qo'ygan ko'rinadi. Buning asosiy sababi, tarjimonlarning asliyat tilidagi so'zlarning ma'no nozikliklari, xalqning madaniyati, milliy o'ziga xosliklari, urf-odatlarini yaxshi bilmasliklaridadir.

Atoqli adibimiz Odil Yoqubov asarlarining turk tarjimoni Ahsan Botur tomonidan turkchalashtirilgan "Adolat manzili" asari yuqoridagi fikrimizga bir dalildir. Bu haqda tadqiqotchilar o'z fikrlarini bayon etishgan, ilmiy munozara hanuz davom etmoqda.

Zotan, badiiy adabiyotning eng muhim xususiyati milliylik ekan, demak, badiiy tarjimada milliylikni saqlab qolish, boshqacha aytganda, uni qayta yaratish tarjima muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichi, bosh omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot va san'at gazetasi. 2010 – 2020 yillar.